

AMERIKA ADABIYOTSHUNOSLIGIDA ADABIY-ESTETIK QARASHLAR: REALIZM VA MODERNIZM DAVRLARI

DSc, professor Tajibayeva Muqaddas Abduraximovna

Andijan davlat pedagogika instituti

Matqobulova Muxayyoxon To'rayevna

Andijon davlat universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada Amerika adabiyotshunosligida realizm va modernizm oqimlariga xos adabiy-estetik qarashlar nazariy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi – adabiyotda estetik tafakkur taraqqiyoti jarayonida realizm va modernizm oqimlarining o'zaro munosabati, qarama-qarshiligi hamda uyg'unligini ochib berishdan iborat. Taniqli adabiyotshunoslarning qarashlari, qiyosiy tahlil va kontent-analiz asosida bu ikki oqimning nazariy asoslari va metodologik farqlari o'rganiladi. Natijada, realizm ijtimoiy haqiqatga asoslangan ifoda vositasi sifatida talqin qilinsa, modernizm insonning ichki olami va estetik erkinlikni ifodalovchi kontseptsiya sifatida qaralishi aniqlanadi. Maqola adabiy-estetik tafakkur evolyutsiyasini anglashda nazariy jihatdan dolzarb va foydali hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Amerika adabiyoti, realizm, modernizm, adabiy oqimlar, zamonaviy adabiyotshunoslik, nazariy yondashuv, adabiy tahlil, estetik tafakkur, qiyosiy tahlil, madaniy kontekst

ЛИТЕРАТУРНЫЕ И ЭСТЕТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В АМЕРИКАНСКОЙ ЛИТЕРАТУРНОЙ КРИТИКЕ: ПЕРИОДЫ РЕАЛИЗМА И МОДЕРНИЗМА.

DSc., профессор Таджибаева Мукаддас Абдурахимовна

Андижанский государственный педагогический институт

Маткобулова Мухайёхон Тураевна

Аннотация

В данной статье с теоретической точки зрения анализируются литературно-эстетические взгляды, характерные для направлений реализма и модернизма в американском литературоведении. Основной целью статьи является раскрытие взаимодействия, противостояния и взаимодополняемости реализма и модернизма в процессе развития эстетического мышления в литературе. На основе взглядов известных литературоведов, а также с применением сравнительного анализа и контент-анализа исследуются теоретические основы и методологические различия данных направлений. В результате установлено, что реализм интерпретируется как форма художественного выражения, основанная на социальной реальности, тогда как модернизм рассматривается как концепция, отражающая внутренний мир человека и эстетическую свободу. Статья представляет теоретическую значимость и актуальность для осмысления эволюции литературно-эстетического мышления.

Ключевые слова: Американская литература, реализм, модернизм, литературные направления, современное литературоведение, теоретический подход, литературный анализ, эстетическое мышление, сравнительный анализ, культурный контекст.

LITERARY AND AESTHETIC VIEWS IN AMERICAN LITERARY CRITICISM: THE PERIODS OF REALISM AND MODERNISM.

DSc, Professor Tajibayeva Muqaddas Abdurakhimovna

Andijan State Pedagogical Institute

Matkobulova Mukhaiyokhon Turayevna

Andijan State University

Abstract

This article provides a theoretical analysis of the literary and aesthetic perspectives characteristic of realism and modernism in American literary studies. The main objective of the article is to reveal the interaction, opposition, and points of convergence between realism and modernism in the process of the development of aesthetic thought in literature. Based on the views of prominent literary scholars, as well as comparative analysis and content analysis, the theoretical foundations and methodological differences of these two movements are examined. As a result, realism is interpreted as a mode of expression grounded in social reality, while modernism is regarded as a concept that represents the inner world of the individual and aesthetic freedom. The article is considered theoretically relevant and useful for understanding the evolution of literary and aesthetic thought.

Keywords: American literature, realism, modernism, literary movements, contemporary literary studies, theoretical approach, literary analysis, aesthetic thought, comparative analysis, cultural context.

Kirish

So‘nggi yillarda adabiy-estetik tafakkurning rivojlanishi, xususan realizm va modernizm oqimlarining nazariy asoslarini qayta ko‘rib chiqish ilmiy doiralarda keng muhokama qilinmoqda. Shu munosabat bilan Amerika adabiyotida shakllangan realizm va modernizm kontseptsiyalarini nazariy jihatdan chuqur o‘rganish zarurati yuzaga kelmoqda. Ushbu oqimlar nafaqat adabiy estetikani, balki ijtimoiy ong va madaniy identitetni shakllantirishda muhim rol o‘ynagan.

Ilmiy adabiyotlarda realizm ko‘proq XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy-real holatni tasvirlashga qaratilgan oqim sifatida ko‘riladi (L. Trilling, I. Howe). Bu davrni Amerika adabiyotining oltin davri bo‘lgan desak yanglishmagan bo‘lamiz sababi bu davr ijodkorlari ushbu hududda juda ko‘p turli ajoyib

yoʻnalishlarda, mavzularda va usullarda ijod qilishdi va amerika adabiyotini jahon adabiyotida tutgan oʻrnini mustahkamlashdi. Teodor Drayzer va Mark Tvenning jasurona realizimidan tortib, Valt Vitmanning sheʼriy romantisizimigacha hamda Ernest Heminguey va Fransis Skotning innovatsion modernizmigacha, amerika adabiyotining bu davri mamlakatda kechayotgan katta koʻlamdagi ijtimoiy, siyosiy va madaniy oʻzgarishlarning oʻziga hos aksi boʻlib hizmat qiladi

Modernizm gʻoyat rang-barang va murakkab falsafiy-estetik hodisa boʻlib, u inson (jumladan, ijodkor) ijtimoiy, siyosiy, psixologik, falsafiy, badiiy-estetik tafakkur tarzidagi jiddiy oʻzgarishlar negizida maydonga kelgan. Mazkur oʻzgarishlarning salmogʻi gʻoyat zalvorli. U badiiy tafakkur shaklidagi oʻzigacha mavjud boʻlgan anʼanaviy qarashlarning barchasini inkor qiladi va oʻz realligini ilgari suradi. Modernizm haqida prof. D. Quronov (va boshq.) tayyorlagan lugʻatda shunday deyiladi: «MODERNIZM (fr. moderne – eng yangi, zamonaviy) – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida ommalashgan termin, sanʼat va adabiyotda dekadansdan keyin maydonga chiqqan norealistik oqimlarning umumiy nomi sifatida tushuniladi. Modernizm esa XX asr oʻrtalarida paydo boʻlgan ichki psixologik izlanish va estetik eksperimentlarga asoslangan oqim sifatida talqin qilinadi (T. S. Eliot, V. Woolf, E. Pound).

Ushbu maqolada aynan ushbu ikki oqim oʻrtasidagi nazariy tafovutlar, ularning Amerika madaniy kontekstdagi talqinlari, shuningdek estetik qarashlardagi oʻziga xosliklar qiyosiy va kontent-analiz yondashuvi orqali tahlil qilinadi. Maqolaning maqsadi – realizm va modernizmning nazariy jihatlarini oʻzaro solishtirish hamda ularning zamonaviy adabiyotshunoslikdagi oʻrni va ahamiyatini ochib berishdir.

Asosiy qism

Amerika adabiyotshunosligida realizm va modernizm davrlari adabiy-estetik tafakkurning muhim yoʻnalishlaridan biri sifatida shakllangan. Bu ikki oqim koʻp hollarda qarama-qarshi sifatida talqin qilinsa-da, ularning nazariy ildizlari va

estetik tamoyillari chuqur o'rganilganida, o'zaro bog'liqlik va izchillik alomatlari ham kuzatiladi. Realizm XIX asr oxiri va XX asr boshlarida ijtimoiy haqiqatni iloji boricha aniq, detallashtirilgan tarzda aks ettirishga intilgan. Metyu Arnold, Uilyam Din Xauells, Lev Tolstoy va Genri Jeyms kabi adiblar va adabiyotshunoslar realizmning asosiy nazariy tayanchlarini shakllantirgan. Amerika kontekstida realizm asosan shahar hayoti, industrial jamiyat, ijtimoiy tengsizlik, sinfiy tafovut kabi masalalarga e'tibor qaratgan.

Modernizm esa XX asrning boshlaridan boshlab, ayniqsa Birinchi jahon urushidan keyin, an'anaviy badiiy shakllarga qarshi chiqdi va adabiy tafakkurda yangilik, subyektivlik va shakliy eksperimentlar ustuvorlikka ega bo'ldi. Taniqli modernist adabiyotshunoslar – T. S. Eliot, Ezra Pound, Virginia Woolf, Gertrude Stein va boshqalar modernizmni "individual ongning ifodasi", "tuzilmani parchalash" yoki "estetik inqilob" sifatida talqin qilganlar.

L. Trilling realizmni "axloqiy xolislik vositasi" sifatida ko'rib chiqadi, I. Howe esa uni "ijtimoiy tafakkurning aks ettiruvchisi" deb ataydi. Ayni paytda Malcolm Bradbury va James McFarlane kabi adabiyotshunoslar modernizmni "san'at orqali ong inqirozini badiiy tasvirlash" deb baholaydilar.

O'zbek adabiyotshunosligida ham ushbu oqimlar yuzasidan nazariy fikrlar ilgari surilgan. Jumladan, G. G'ulomov va A. Hayitmetov kabi olimlar G'arb adabiyotidagi realizm va modernizmning o'zbek adabiy jarayoniga ta'sirini tahlil qilgan. Biroq bu yondashuvlar asosan estetik ta'sirlar doirasida qolgan bo'lib, nazariy kategoriyalar o'zaro qiyosli tahlil qilinmagan. Maqolaning asosiy farqlanuvchi jihati shundaki, bu yerda realizm va modernizm adabiy-estetik konsept sifatida emas, balki adabiy tafakkurning evolyutsion bosqichlari sifatida baholandi. Bu yondashuv realizmning ijtimoiylikka asoslangan strukturasi modernizmning psixologik va estetik erkinligi bilan taqqoslash imkonini beradi.

Realizm va modernizm – bu nafaqat adabiy oqimlar, balki ikkita qarama-qarshi estetik dunyoqarash, tafakkur va ifoda uslubidir. Maqolada asosiy nazariy muammo sifatida ushbu ikki oqimning estetik mezonlari, adabiy vazifasi va inson obrazini talqin qilishdagi yondashuvlari o'rtasidagi tafovutlar o'rganiladi. Maqolada kontent-analiz va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanilgan bo'lib, turli asarlar va nazariy manbalarda realizm va modernizm tushunchalari qanday izohlanganiga e'tibor qaratiladi. Tahlil davomida quyidagi asosiy savollarga javob izlanadi:

1. Realizm va modernizm qanday adabiy-estetik qadriyatlarga tayanadi?
2. Har bir davr insonni qanday talqin qiladi?
3. Ularning shakl, mazmun va uslubdagi farqlari nimada?

Realizmda inson tashqi ijtimoiy muhitda shakllanadigan mavjudot sifatida ko'rsatiladi. Jamiyat, sinfiy ijtimoiylik, tarixiy voqealar – bular realizmda asosiy markazda turadi. Masalan, Genri Jeyms asarlarida ruhiy jarayonlar bo'lsa-da, ular tashqi voqealar bilan chambarchas bog'langan.

Modernizm esa insonni ichki kechinmalari, ong oqimi, individual tajribasi asosida tahlil qiladi. Virginia Woolfning "To the Lighthouse" yoki James Joycing "Ulysses" asarlari ong oqimi, vaqt va makonning sinishi orqali modernistik estetika namunasi sifatida ko'riladi. Maqolada nazariy asos sifatida poststrukturalistik yondashuv qisman qo'llaniladi. Unga ko'ra, har qanday adabiy matn ma'nosi subyektiv bo'lib, kontekstga qarab o'zgaradi. Shu bois realizmda aniqlik ustuvor bo'lsa, modernizmda bu buziladi – ma'no asosiy o'rinda turadi. Shunday qilib, maqola realizm va modernizm o'rtasidagi tarixiy, estetik va ontologik farqlarni fosh etadi va ularni adabiy tafakkurda ketma-ket rivojlangan bosqichlar emas, balki muqobil yondashuvlar sifatida talqin qiladi.

Realizm va modernizm o'rtasidagi estetik tafovutlar ko'plab adabiy-tanqidiy maktablar tomonidan turlicha talqin qilingan. Bu ikki oqimning mohiyatini anglashda ularning ijodiy motivlari, adabiy vositalari va ijtimoiy-estetik funktsiyalariga e'tibor qaratish zarur. Realizm badiiy haqiqat ob'ektiv tarzda talqin qilinadi. Bu oqimning asosiy maqsadi – jamiytdagi ziddiyatlar, sinfiy kurash, hayotdagi noxolisliklar va ularning inson taqdiridagi aksini ko'rsatishdir. Modernizm esa badiiy haqiqatni inson ongi va idrokida aks etgan shaklda ko'rsatishga intiladi. Vaqt, makon va tilning an'anaviy strukturasi buziladi. Bu yondashuv orqali ijodkor insoniy tajribaning ichki qatlamlariga chuqur kirib boradi. Ushbu maqolada realizm va modernizm o'rtasidagi tafovutlar oddiy qarama-qarshilik emas, balki estetik tafakkurdagi transformatsiya sifatida baholandi. Realizm insonni tashqi ijtimoiy muhitda shakllanadigan mavjudot sifatida talqin etsa, modernizm inson – bu o'z fikr-mulohaza, shaxsiy sezgi va ichki kechinmalardan tashkil topgan ongli mavjudotdir.

Bugungi global axborot va texnologiyalar davrida realizmning haqiqatni ochishdagi aniqligi ham, modernizmning inson ongi va sezgilariga e'tibor berishi ham o'z ahamiyatini saqlab qolmoqda. Hozirgi zamonaviy adabiyotda, ayniqsa postmodernistik oqimlarda bu ikki yondashuvni sintez holida ko'rish mumkin. Masalan, Don DeLillo yoki Toni Morrison kabi yozuvchilarning asarlarida realizm va modernizm elementlari birgalikda mavjud.

Amerika adabiyotida realizm XIX asrning sanoat inqilobi va fuqarolar urushi davrida ijtimoiy o'zgarishlar fonida paydo bo'ldi. Modernizm esa XX asr boshlarida insoniyat ongidagi inqiroz va urush fojialari natijasida shakllandi. Bu tarixiy kontekst yondashuvlarning shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Mahalliy adabiy kontekstda esa realizm asosan 1930–1980 yillarda sobiq sovet davrining dominant estetik uslubi bo'lsa, mustaqillikdan so'ng, modernistik izlanishlar kuchayib bordi. Ammo realizm hamon o'z kuchini saqlab qolmoqda – bu esa adabiy tafakkurning ko'p qatlamlilikini anglatadi.

Xulosa

Ushbu maqolada Amerika adabiyotshunosligida realizm va modernizm oqimlarining adabiy-estetik qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, realizm va modernizm o'rtasidagi asosiy farq badiiy haqiqatni qabul qilish va ifoda etish uslubida yotadi. Realizm haqiqatni tashqi, ijtimoiy va obyektiv hodisa sifatida ko'rishga urg'u bersa, modernizm inson ongi, idrok va ichki kechinmalarga asoslangan sub'ektiv haqiqatni ta'kidlaydi. Maqolada ushbu yondashuvlarning ijtimoiy va tarixiy kontekstdagi shakllanish jarayoni hamda ularning Amerika adabiyotida o'zaro ta'siri ko'rib chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy adabiyotda realizm va modernizm elementlari ko'pincha sintez qilinib, yangi estetik paradigmalar yuzaga kelmoqda.

Mazkur tahlil ilmiy-tadqiqiy nuqtai nazardan dolzarb bo'lib, Amerika adabiyotining rivojlanishini tushunishda yangi yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Kelgusida ushbu mavzuda qo'shimcha empirik tadqiqotlar olib borilishi, shuningdek, boshqa madaniyatlardagi adabiy oqimlar bilan solishtirma tahlillarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. XIX ASR OXIRI VA XX ASRNING BOSHIDA AQSH ADABIYOTIDA REALIZM VA NATURALIZM. Farrux Tursunov Baxtiyor o'g'li Master student of NamSIFL <https://doi.org/10.5281/zenodo.13744558>
2. Hamdam, Ulug'bek. Jahon adabiyoti: modernizm va postmodernizm [Matn]: o'quv qo'llanma / Ulug'bek Hamdam. – Toshkent: Akademnashr, 2020. – 9b.
3. Назаров X. Америка адабияти тарихи. – Toshkent: Fan, 2003.

4. Muhammadjon Xolbekov. XX asr modern adabiyoti manzaralari. XX asr modernizm prozasining tadrijiy talqini.
5. The Liberal Imagination. Page 5. by Lionel Trilling. BIOGRAPHY. Matthew Arnold. E. M. Forster. NOVEL. The Middle of the Journey. Page 6
6. Gray, Richard. A History of American Literature. Malden: Blackwell Publishing, 2004.
7. Matthiessen, F.O. American Renaissance: Art and Expression in the Age of Emerson and Whitman. New York: Oxford University Press, 1941.
8. Kazin, Alfred. On Native Grounds: An Interpretation of Modern American Prose Literature. New York: Harcourt, Brace & World, 1942.
9. Bloom, Harold. The Anxiety of Influence: A Theory of Poetry. New York: Oxford University Press, 1973.
10. Tojiboyeva M. Jadid adiblari ijodida mumtoz adabiyot an'analari va mahurat masalalari. – Toshkent, "MUMTOZ SO'Z", 2017. - 257b.
11. Tojiboyeva Muqaddas Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti. – Toshkent, "MUMTOZ SO'Z", 2017. - 209b.
12. https://kh-davron.uz/kutubxona/jahon/muhammadjon-xolbekov-xx-asr-modern-adabiyoti-manzaralari-02.html?utm_source